

VETERINARIYA YO'NALISHLARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA

Amangeldiev Ulug'bek Alisherovich
Mirzabekov Miyribek Omirbekovich
Radjapov Uug'bek Paraxatovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali talabalari*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Veterinariya xizmatidan yaxshi foydalanish hamda kasalliklarning oldin olish vazifalari aytilgan.*

***Kalit so'zlar :** Veterinariya, parranda, qishloq xo'jaligi, kasalliklar.*

Veterinariya xizmati mamlakat, hududiy zonalar yoki xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida, korxonalar, transport, davlat chegarasi, qurolli kuchlarda jami veterinariya tadbirlarini amalga oshiradigan veterinariya tashkilotlari va muassasalari majmui. Veterinariya xizmati mamlakatda hayvonlar (shu jumladan parranda, mo'ynali hayvonlar, baliklar, asalarilar) kasalliklarining oldini olish va ularni yo'qotish bilan shug'ullanadi; qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligini oshirishga karatilgan veterinariya tadbirlari o'tkazilishini tashkil etadi; veterinariya-sanitariya jihatidan xatarsiz hayvonot mahsulotlari va xom ashyo tayyorlanishini ta'minlaydi, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar (zooantroponozlar)dan, mamlakat hududini boshqa davlatlardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan muhofaza qiladi. Bu vazifalarni bajarish uchun veterinariya ishiga rahbarlik va veterinariya tadbirlarini tashkil etish mamlakat miqyosida markazlashtirilgan holda olib boriladi. Hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish va davolash ishlari ularni xonakilashtirish davridan boshlangan. Davolash bilan cho'pon, otboqar va b. chorvadorlar shug'ullangan. 1929-yil ochilgan Samarqand qishloq xo'jaligi institutida veterinariya mutaxassislari tayyorlana boshladi. Viloyatlardagi qishloq xo'jaligi va zooveterinariya texnikumlarida veterinariya feldsherlari tayyorlandi. 1959-yil Samarqand viloyatida biologik preparatlar tayyorlaydigan kombinat ishga tushiriddi. 1976-yil Samarqandda zararli bo'g'imoyoklilarga qarshi kurash O'rta Osiyo lab. tashkil etildi (O'zbekiston mustaqillikka erishgach, u O'zbekiston veterinariya-sanitariyasi va akarologiyasi ilmiy tadqiqot institutiga aylantirildi).

O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni (1993-yil 3 sentabr)ga binoan mamlakatda davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy Veterinariya xizmati tashkil topdi. Davlat Veterinariya xizmatini Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent sh. davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyat va tuman

bo'ysunuvidagi shaharlarning davlat veterinariya bo'limlari, ular qaramog'idagi xayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stansiyalari (tuman veterinariya stansiyalari), diagnostika markazlari, veterinariya shifoxonalari, lablari, ekspeditsiyalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash qismlari, dehqon bozorlaridagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi lab.lari va davlat veterinariya tarmog'ining boshqa muassasalari amalga oshiradi. Idoraviy Veterinariya xizmati vazirlik, idora, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tasarrufida bo'lib, veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlari doirasida hayvonlarga idoraviy veterinariya nazorati va Veterinariya xizmati ko'rsatishni amalga oshiradi.

Xususiy Veterinariya xizmati bilan veterinariya vrachi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va b., shuningdek veterinariya feldsherlari va texniklari veterinariya vrachi nazoratida shug'ullanishi mumkin. Respublikadagi chorva va uy hayvonlarida 80 dan ortiq tur va yuqumli, gijja kasalliklari uchraydi. Ularga qarshi kurashda oldini olish tadbir-choralari, emlash, gijjasizlantirish ishlari olib boriladi. Shunga qaramay suturish, leptospiroz, salmonellyoz, teylerioz, qorason, fasallyoz, gemonxoz, senuroz, exinokokkoz, manezioz kabi kasalliklar vaqt-vaqti bilan chorvaga katta ziyon yetkazadi. Keyingi yillarda respublikada qoramollar o'lati, otlar manqasi, plevropnevmoniya kabi chorva mollariga qiron keltiradigan kasalliklar kuzatilmadi.

Respublika davlat Veterinariya xizmati tarmopsha 2504 nafar veterinariya vrachlari, 2486 nafar veterinariya feldsherlari; idoraviy Veterinariya xizmati tarmog'ida 1719 nafar veterinariya vrachlari va 2872 nafar veterinariya feldsherlari, xususiy Veterinariya xizmati tarmog'ida esa 1231 nafar veterinariya mutaxassislari ishlaydi. Davlat Veterinariya xizmati tizimida 13 viloyat veterinariya bo'limi, 165 ta tuman veterinariya shoxobchalari, 13 viloyat veterinariya lab., 126 tuman va tumanlararo veterinariya lab.lari, 246 veterinariya-sanitariya ekspertizasi lab.lari, 55 uchastka veterinariya shifoxonalari mavjud (1998). veterinariya tibbiyoti, baytariya (lotincha: veterinarius — hayvonlarni parvarish qiluvchi, hayvonlarni davolovchi) — hayvonlar kasalliklarini o'rganuvchi fanlar majmui hamda hayvonlar kasalliklarining oldini olish va ularni yo'qotish, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi. Veterinariya shartli ravishda 3 guruhga ajratiladigan fanlarni o'z ichiga oladi: veterinariya- biologiya fanlari — hayvonlarning sog'lom va kasal organizmlari tuzilishi va hayot faoliyatini, kasallik qo'zg'atuvchilarini, dori moddalarining organizmga ta'sirini o'rganadi (hayvonlarning normal va patologik anatomiyasi, fiziologiyasi, hayvonlar biokimyosi, Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiya, mikologiya, fiziologiya va boshqalar); klinik fanlar — hayvonlar kasalliklarini,

ularni aniqlash usullarini, kasalliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishni o'rganadi epizootologiya va infeksiyon kasalliklar, parazitologiya, invazion kasalliklar, ichki yuqumli bo'lmagan kasalliklar, xirurgiya, akusherlik va ginekologiya (sun'iy qochirish bilan birga) va boshqalar veterinariya-sanitariya fanlari — hayvon organizmiga tashqi omillar ta'sirini, hayvonlar yashaydigan muhitni yaxshilash muammolarini (zoogigiyena), shuningdek hayvonlardan olinadigan mahsulotlar va xom ashyo sifati masalalarini o'rganadi (Veterinariya sanitariyasi, Veterinariya sanitariya ekspertizasi). Veterinariya zootexnika, biol., kimyo va boshqalar fanlar bilan chambarchas bog'liq. Veterinariya mutaxassislari olib boradigan tadbirlar (profilaktika, davolash, epizootiyaga qarshi kurash, veterinariya-sanitariya tadbirlari) chorvaga kasalliklar yetkazadigan zarar hajmini qisqartirish imkoniyatini yaratadi, chorva bosh sonini saqlab qolishni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydi. Hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklarga qarshi kurash, hayvonot mahsulotlari sifatini nazorat qilish odamlarning kasalliklarga chalinishini kamaytirishga yordam beradi. Odamlar hayvonlarni qo'lga o'rgatgan va ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalangan davrdan boshlab hayvonlarni davolab ham kelganlar.

O'zbekistonda keng tarmoqli Veterinariya muassasalari va tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari va stansiyalari, Veterinariya bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari va texnikumlari tashkil etilgan. O'zbekistonda Veterinariya vrachlari Samarqand qishloq xo'jaligi institutida tayyorlanadi (1929-yildan). Veterinariya sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari O'zbekiston veterinariya instituti (Samarqand viloyati)da olib boriladi (qarang Veterinariya instituti). Respublikadagi bir qator qishloq xo'jaligi kollejlari o'rta maxsus ma'lumotli Veterinariya mutaxassislari tayyorlanadi. Respublikada Veterinariya fani rivojiga G. I. Skryabin, M. A. Sultonov, J. Azimov, N. V. Badanin, E. H. Ergashev, N. M. Matchonov, R. X. Xaitov, B. S. Salimov, M. Aminjonov, Sh. Azimov, A. O. Oripov, T. Q. Qobilov, O. M. Mavlonov, A. L. Ro'zimurodov, Z. N. Norboyev, J. Shopo'latov, S. I. Voxddov, Sh. I. Ibragimov, X. Z. Ibragimov, Sh. T. Rasulov, D. X. Narziyev, F. X. Majidov va boshqalar katta hissa qoshgan. Veterinariya xizmati hamma yonalishlari O'zbekiston Respublikasida va Qoraqolpog'iston Respublikasida yaxshi rivojlangan bolip hisoblanadi ya'ni Veterinariya, Veterinariya san-ekspertizasi Veterinariya Diagnostikasi, Veterinariya Farmaceutikasi, Veterinariya Laboratoriysi, boshqada yonalishlari mavjud bolip hisoblanadi. Veterinariya Qishloq xo'jaligida chorvachilik ya'ni mollarning unumdorligini oshirish, kasalliklarinig oldin olish uning racionin yaxshilash bolip hisoblanadi. Biz kelajak avlod Veterinariyani rivojlanishi uchun katta hissa

qo'shishimiz lozim, texnologik jarayoni yaxshilash yanada apparatlarini hozirgi zamonaga moslashtirish bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirov P.S., Kaxarov A.K., Do'stqulov S.D. Chorva mollarini urchitish. Darslik. Toshkent, 2003 yil.
2. Nosirov U.N., Nosirov G'.U., Nosirov T.U. Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Darslik. Toshkent, 2008 yil.
3. Shukrulloevich, T. J., & Subxanovich, A. A. (2022). THE RISING OF THE INEQUALITY ON THE EDUCATION SYSTEM OF PRESCHOOLS IN UZBEKISTAN.
4. SAPP JAN «Genesis: The Evolution of Biology». Oxford University Press, USA. 2003, USA.
5. Iriskulov, A. T., Aslanov, A. S., & Subhonova, A. A. Q. (2021). Possible dangers for a language which affect to its global status. Scientific progress, 2(2), 168-174.
6. "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi Davlat qonuni, 1996 yil.
7. Maqsudov I., Jo'rayev J., Amirov Sh. "Chorvachilik asoslari". O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010 yil.
8. Iriskulov, A., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2021). THE IMPORTANCE OF LEARNING A LANGUAGE DURING CHILDHOOD. Материали конференцій МЦНД.
9. "Naslchilik to'g'risida"gi Davlat qonuni, 1995 yil.
10. Abdalniyozov B. "Chorvachilik asoslari". Darslik. Toshkent, 2010 yil.